

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI ALALIYA NUTQ NUQSONI USTIDA ISHLASHGA TAYYORLASH METODIKASI

VOXOBOVA MUNIRAXON SADIRDINOVNA

Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika va
psixologiya kafedra Maxsus pedagogika
yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish tizimi va bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashga tayyorlash metodikasi yoritilgan bo'lib Motor alaliyali bolalar bo'yicha olimlar qarashlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: alaliya, nutq, logoped, muloqot bog'langan nutq, motor alaliya, nogiron, differentsiatsiya, so'z boyligi

Mamlakatimizda oliy ta'lim mazmunini, o'qitish shakllarini modernizatsiyalash bo'yicha huquqiy-me'yorlar asosli tarzda joriy etilgan. Bundan tashqari nogironligi bo'lgan bolalarni sifatli ta'lim bilan qamrab olishga mo'ljallangan dasturlarni optimallashtirishning ham tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirilgan. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma ob'yektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish" vazifasi doirasida ilmiy tadqiqotlar va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash maqsadida nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirishni, nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlangan o'quv muhitini yaratish modeli va uning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalarda nutqqa taqlidchanligini shakllatirish va rivojlantirish muammosi bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bo'lajak logopedlarni alaliya nutq nuqsoni ustida ishlashda bolalarni nutqqa taqlidni rivojlantirish, faol lug'atni rivojlantirish, garchi korreksion ta'limning asosiy vazifasi bilan belgilanadigan bo'lsa-da, nutq faoliyati haqidagi zamonaviy g'oyalarga asoslangan izchil korreksion tizimi ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu motor alaliyali bolalar bilan korreksion-logopedik ishini

yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar so'z boyligini chegaralanganligi, imo-ishora va amorf so'zlardan foydalanish tendensiyasini uzoq saqlanib borishi kuzatiladi. Mazkur bolalar nutqining yaqqol belgilaridan biri bu passiv va faol lug'at hajmining odatdagidan ko'ra sezilarli darajada farqlanishidir. Motor alaliyali maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p so'zlarning ma'nosini tushunishadi; ularning passiv so'z boyligi me'yor chegaralarida bo'ladi. Biroq og'zaki nutqda so'zlarni qo'llash, mavjud lug'at boyligidan faol foydalanish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Motor alaliyasi bo'lgan bolalarda ekspressiv nutqning shakllanishiga nutq-harakat analizatorining analitik va sintetik faoliyatining buzilishi to'sqinlik qiladi. Bu buzilishlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, jumladan:

- a) kinestetik oral apraksiyasi, ya'ni artikulyasion tuzilmalarni, keyinroq tovushlarning motor differentsiatsiyasini shakllanishi va mustahkamlashdagi qiyinchiliklar;
- b) bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tish qiyinligi;
- v) so'zni talaffuz etish uchun ushbu harakatlar ketma-ketligi (uning motor sxemasi)ni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va boshqalar.

Avvalo, motor alaliyali bolalar nutqqa tadlidchanligi, faol lug'atining o'ziga xos xususiyatlari so'zlarning tovushli obrazlarining beqarorligi, ularni eslab qolish va bo'g'in qatorini saqlab qolish qiyinligi bilan izohlanadi. Bolalar faol so'z boyligining kambag'alligi lug'atdan tanish so'zlarni tanlay olmaslik va nutqda tanish so'zlarni to'g'ri qo'llay olmaslikda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, alaliyaga ega bolalarga xos bo'lgan nutqqa taqlidchanlikdagi buzilishlarning aksariyati so'z ortidagi tushunchalar bilan emas, balki so'zni qidirish jarayoni bilan bog'liq. Bolalar, qoida tariqasida, to'g'ri tushunchalarga ega, ammo tushunchalarni ifodalash uchun so'zlarni topishi qiyin. L.A.Danilovning tadqiqotlarida ta'kidlashicha, motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar "odatiy bog'langan nutqqa ega emaslar. S.N.Shaxovskaya "alaliyaga ega bolalarda nutqiy jumalarning mavjud emasligi, ularning bog'langan nutqdan qochish istagi", qayta hikoyalashda jumalarni qurish qiyinligi, nutq shakli va uning mazmuni ustidan bir vaqtning o'zida nazorat o'rnatilmaslik, noaniqlik va fikrlarni ifoda etishda qiyinchiliklarni ta'kidlaydi. L.V.Melixova maktabgacha yoshdagi alaliyali bolalar jumalalarining agrammatik xususiyatini qayd etadi, shu bilan birga og'zaki nutqdagi uzoq pauzalarni, so'zlarning buzilishini ta'kidlaydi. N.N. Traugott motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar lug'atining tor situatsion xususiyatini ta'kidlaydi. Bu ular o'zlashtirgan so'zlarni og'zaki muloqotning turli vaziyatlarida darhol qo'llashni boshlamasliklarida namoyon bo'ladi. Vaziyatning ozgina o'zgarishi bilan, xatto o'ziga yaxshi tanish va boshqa

sharoitlarda aytiladigan so'zlarni qo'llashdan to'xtashadi. N.S.Jukova, ayniqsa, normal va nutq rivojlanishi buzilgan bolalar o'rtasidagi katta farqlar, predikativ lug'at (fe'llar, sifatlar) faollashtirishda kuzatiladi, deb hisoblaydi. Maktabgacha yoshdagi motor alaliyaga ega bolalar nutqi me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlarining nutqida qo'llaniladigan ko'plab sifatlarni nomlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki lug'atida bolaning har kuni bajaradigan yoki kuzatadigan harakatlarini bildiruvchi so'zlar ustunlik qiladi. Umumlashgan, mavhum ma'noli so'zlarni, holatni bildiruvchi so'zlarni, baholashni, sifatlarni, belgilarni va boshqalarni ancha qiyinroq o'zlashtirishadi. Motor alaliyaga ega bolalar lug'atining o'ziga xos xususiyati so'zlarning noto'g'ri qo'llashidir va bu, aksariyat hollarda, og'zaki parafaziyalarda ifodalanadi. Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar nutqida so'zlarning noaniq yoki noto'g'ri qo'llashining namoyon bo'lishi har xil. Ba'zi hollarda bolalar so'zlarni haddan tashqari keng ma'noda ishlatishadi. Boshqalarida so'zning ma'nosini juda tor tushunish namoyon bo'ladi. Ba'zida nutqi umumiy rivojlanmagan bolalar so'zni faqat mavhum vaziyatda qo'llashadi, boshqa vaziyatlarni so'zlashda so'z kontekstga kiritilmaydi. Shunday qilib, so'zni tushunish va ishlatish hali ham vaziyatli xarakterga ega bo'ladi. Uning ma'nosi va tovush tuzilishi yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi sababli doimiy tarzda qidiruv jarayonida bo'ladi.

Nutqqa taqlid va faol lug'atni boyitish ustida maqsadga qaratilgan tarzda ishlash motor alaliyali bolalar bilan logopedik ishlarining umumiy tizimida muhim ahamiyatga ega. Bu, birinchi navbatda, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda yetakchi rol bilan belgilanadi. Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar tanish so'zlarni erkin qo'llash imkoniyatiga asta-sekin erishib, ularni barcha vaziyatlarda cheklovsiz ishlata boshlashadi. Bu ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushungan holda ularni nomlashdan bosh tortishga, doimiy qidiruvga olib keladi. Shu bilan birga, bolaning o'zi xatosini biladi, lekin ko'pincha tegishli so'zni nomlay olmaydi. Ba'zi xatolar ba'zan jamlangan holda namoyon bo'ladi, masalan, boshqa so'z bilan almashtirish mimik-imo-ishora nutqi yordamida almashtirish bilan birga kuzatiladi. Shu bilan birga, agar so'zni topishda qiyinchiliklar mavjud bo'lsa, bolalarning "batafsil" javoblarida turli xil xatolar ko'pincha doimiy ravishda ketma-ket namoyon bo'ladi: masalan, birinchi navbatda so'z boshqa so'z bilan almashtiriladi, so'ngra og'zaki tavsif, tovushga taqlid, imo-ishora va boshqalar bilan almashtiriladi. Bolalarda mavjud bo'lgan kam hajmli lug'at asosan sezgilar orqali bevosita idrok qilinadigan narsa va hodisalarni aks ettiradi. Nutq rivojlanishining ushbu bosqichida voqelikning mavhum munosabatlarini og'zaki ifodalashga oid so'zlar bolalarda uchun deyarli mavjud emas. Shunday qilib, motor alaliyaga ega bolalarda faol so'z boyligini shakllanmaganligi aloqa qilishga motivatsiyasi,

faoliyatning turli tarkibiy qismlarining faolligi buzilishi bilan uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Muloqotga bo'lgan intilishning yo'qligi muloqotdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq va ularni yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нищева, Н.В. Вариативная примерная адаптированная основная образовательная программа для детей с тяжелыми нарушениями речи (общим недоразвитием речи) с 3 до 7 лет / Н.В. Нищева. – Издание третье, переработанное и дополненное в соответствии с ФГОС ДО. – Санкт-Петербург: ДЕТСТВО-ПРЕСС, 2015.
2. Гаркуша Ю.Ф. Коррекционно педагогическая работа в дошкольных учреждениях для детей с нарушениями речи. - Под редакцией Ю.Ф.Гаркуши 2008
3. Ауурова М.У. "Logopediya" darslik Toshkent – 2019
4. Oribboyeva, Dilafruz Dadamirzayevna. "PSIXOLOGINVESTIKA VA LINGVISTIK KOMPETENSIYA." Academic research in educational sciences 5.CSPU Conference 1 (2024): 346-349.
5. Ориббоева, Дилафруз Дадамирзаевна, and Дилрабо Махмудовна Мирзаахмедова. "Болаларда ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти." Science and Education 5.2 (2024): 595-599.
6. Oribboyeva, Dilafruz Dadamirzayevna, and Shaxnoza Baxtiyor Qizi G'Aniyeva. "Assertiv xulq shakllanishining o'ziga xosligi." Science and Education 5.2 (2024): 590-594.
7. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN." Open Access Repository 9.12 (2023): 372-375.
8. Azamovna, Rasulova Gulnozakhon, and Vaxobova Munira. "CASE STADE AND TECHNOLOGY OF USING NON-STANDARD TESTS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITIES." Open Access Repository 8.12 (2022): 277-282.
9. Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "FORMATION OF SPEECH IMITATION IN CHILDREN WITH SEVERE DEGREE OF MOTOR ALALIA." Open Access Repository 4.2 (2023): 316-320.

31.10.2024, UNITED KINGDOM

<https://conferencea.one>

10. SADIRDINOVNA, VOKHOBOVA MUNIRAKHAN. "WAYS AND METHODS OF SPEECH FORMATION OF CHILDREN WITH ALALIYA SPEECH DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 231-235.
11. Vaxobova, Muxtabar. "O 'SMIRLARNING OTA-ONALARI BILAN MUNOSABATLARIDAGI MUAMMOLAR." *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании* 4.2 (2024): 53-57.
12. Usmonalieva, Matmusaeva Nigora, and Raximova Xurshidaxon Sadikovna. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 844-846.
13. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "DEVELOPMENT PROSPECTS OF COCHLEAR IMPLANTING." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 319-322.
14. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "IMPROVING EDUCATIONAL WORK FOR CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT." *Open Access Repository* 9.12 (2023): 397-402.
15. Oribboyeva, Dilafruz Dadamirzayevna, and Ziyeda Botirova. "Kichik yoshdagi maktab o 'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi." *Science and Education* 5.3 (2024): 541-544.
16. Munira, Voxobova, and Turgunbayeva Shoxistaxon. "BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 59-61.
17. Munira, Voxobova, and Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna. "BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLIH CHORALARI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 33-35.
18. Munira, Voxidova, and Qosimova Marhabo. "OVOZ KAMCHILIKLARINING UCHRASHI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 29-32.
19. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "MENTAL CHANGES IN CHILDREN WITH AUTISM SYNDROME." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 1278-1282.
20. SADIKOVNA, SATTOROVA DILDORA MIRZAAKBAROVNA RAKHIMOVA KHURSHIDAKHAN. "THE FIRST INSTITUTIONS OPENED

FOR THE DEAF IN THE HISTORY OF DEAF PEDAGOGICS. THE IMO SIGN AND ORAL EDUCATION SYSTEM IS IMPLEMENTED FOR THEM." Conferencea 12.12 (2023): 461-468.a